



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)



ISSN: 2992-8982 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI	12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	16
Shermuxamedov Akmal Komiljonovich	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	27
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	32
Azlarova Aziza Axrorovna	



RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Azlarova Aziza Axrorovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Bank ishi" kafedrası, i.f.n., prof.,
E-mail: a.azlarova@tsue.uz

Annotatsiya. Maqolada raqamli muhitda bank xizmatlarini masofadan ko'rsatishni takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan. Izlanishlar davomida bu borada mavjud muammolar amaliy ma'lumotlar asosida aniqlangan. Olib borilgan tadqiqot natijalari bo'yicha amaliy takliflar va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank, raqamli muhit, masofaviy bank xizmatlari, moliyaviy ommaboplik, depozit, kredit, onlayn mikroqarz, raqamli transformatsiya, mijoz, moliyaviy savodxonlik.

Abstract. The article examines issues related to improving remote banking services in the digital environment. During the research, existing problems in this area were identified based on practical data. Based on the findings, practical proposals and scientific recommendations were developed.

Key words: bank, digital environment, remote banking services, financial inclusion, deposit, credit, online microloan, digital transformation, client, financial literacy.

Аннотация. В статье исследованы вопросы совершенствования дистанционного банковского обслуживания в условиях цифровой среды. В ходе исследования на основе практических данных выявлены существующие проблемы в данной сфере. По результатам проведенного исследования разработаны практические предложения и научные рекомендации.

Ключевые слова: банк, цифровая среда, дистанционные банковские услуги, финансовая доступность, депозит, кредит, онлайн-микрорайм, цифровая трансформация, клиент, финансовая грамотность.

KIRISH

Bugungi sharoitda mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish, ularning keng aholi qatlamlari uchun qulay va tushunarli bo'lishini ta'minlash, shuningdek, mazkur xizmatlar ko'lamini kengaytirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayni jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, ular yordamida bank xizmatlarini zamonaviy shakllarda rivojlantirish va yangi turlarini amaliyotga tatbiq etish dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 12-mayda tasdiqlangan «2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi»[1]da bank sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Mazkur hujjatda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklari faoliyatidagi biznes-jarayonlarni avtomatlashtirish hamda masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish muhim vazifalar sifatida qayd etilgan.

Shuningdek, tijorat banklarining korporativ transformatsiyasi doirasida qator amaliy chora-tadbirlarni hayotga tatbiq etish nazarda tutilgan. Xususan, masofaviy bank xizmatlari turlarini, jumladan, kontaktsiz to'lovlar qamrovi va hajmini kengaytirish, skoring tizimlari, masofaviy identifikatsiya hamda kredit konveyeri mexanizmlaridan samarali foydalanish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, bank axborot tizimlari xavfsizligini mustahkamlash, shuningdek, moliya sohasiga ilg'or texnologiya va yondashuvlarni, jumladan, fintex hamda raqamli banking yechimlarini keng joriy etish belgilangan.

Mazkur chora-tadbirlar mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qilib, iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish, shuningdek, O'zbekistonning jahon iqtisodiy makoniga integratsiyalashuv jarayonlarini chuqurlashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiyaga bir qator iqtisodchi olimlar o'z ta'riflarini bergan. Jumladan, xorijlik iqtisodchilar Abyazov T. va Asaul V. [3]ning fikricha, raqamli transformatsiya jarayoni mavjud biznes modellarini takomillashtirish, shuningdek, ish samaradorligini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanishni anglatadi. Ushbu jarayon innovatsion texnologiyalarni doimiy ravishda joriy etishni o'z ichiga olib, butun iqtisodiyotni kompleks raqamli transformatsiya qilishga xizmat qiladi.

Rossiyalik iqtisodchi olim Vadim Arkadevich Koshcheev [4] moliyaviy sektorni rivojlantirish nuqtayi nazaridan raqamli transformatsiyani yangi ish muhitini shakllantiruvchi biznes yuritishning amaliy usullarini takomillashtirish jarayoni sifatida baholaydi.

Shuningdek, u raqamli iqtisodiyot va innovatsion iqtisodiyot bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar ekanligini, biroq ular o'rtasida muhim farqlar mavjudligini ta'kidlaydi. Xususan, raqamli iqtisodiyotda an'anaviy iqtisodiyotdagi moddiy resurslar ulushining o'rnini raqamli texnologiyalar egallasa, innovatsion iqtisodiyotda esa ushbu o'rinni ko'proq intellektual boylik va innovatsion g'oyalar egallaydi. Fikrimizcha, bank sohasida raqamli transformatsiyani rivojlantirish mijozlar ehtiyojlarini chuqur o'rganish hamda mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish asosida mijozga yo'naltirilgan innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish orqali amalga oshirilishi lozim.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "yana bir jiddiy kamchilik shuki, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisobidan xodimlar sonini va ish jarayonlarini optimallashtirish choralari ko'rilmayotganligidir" [2].

O'zbekistonda ham bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan bank xizmatlarini masofadan ko'rsatishni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Iqtisodchi olim Mamadiyarov Z.T.ning fikricha, "masofaviy bank xizmatlari — bu banklarning mijozlarga taqdim etayotgan xizmatlarini mijoz bilan bevosita yuzma-yuz muloqotsiz, zamonaviy bank texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda masofadan amalga oshirish jarayonidir. Bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi, bir tomondan, aholi hayot tarzidagi o'zgarishlar va yangi axborot texnologiyalarining joriy etilishi, ikkinchi tomondan esa bank operatsiyalarining avtomatlashtirilishi bilan bog'liq" [5].

Yana bir mahalliy iqtisodchi olim M. Umarova "raqamli modelda bank xizmatlari jarayoni xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy shakllaridan biri bank xizmatlariga masofadan ulanadigan qurilmalar foydalanuvchilarini autentifikatsiya qilish hisoblanadi. Mazkur holat iqtisodiyotning raqamlashuvi obyektiv va muqarrar jarayon ekanligini hamda uni to'xtatishning imkoni yo'qligini ko'rsatadi", deb hisoblaydi [6].

Oltaev Sh.S. esa "butun jamiyat global internet sifatini yaxshilash va aloqa tizimlarini rivojlantirish maqsadida raqamli texnologiyalarga murojaat qilmoqda. Natijada katta hajmdagi ma'lumotlar almashinuvi va to'planishi yuz bermoqda. To'plangan ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatining mavjudligi esa, o'z navbatida, prognozlash hamda asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi", degan fikrni o'z tadqiqotlarida ilgari surgan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosini umumiy iqtisodiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha olimlar hamda soha vakillarining iqtisodiy qarashlari va ilmiy yondashuvlari tahlil qilindi. Shuningdek, ekspert baholash usuli, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil hamda muallifning ilmiy kuzatuvlari asosida tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda dunyo amaliyotida elektron to'lovlarni amalga oshirishda QR-kod texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Mazkur amaliyot respublikamizda ham jadal sur'atlarda rivojlanib bermoqda. Xususan, xaridor o'zining bank to'lov kartasini smartfondagi mobil ilovaga bog'lab, savdo shoxobchalarida xaridlarni amalga oshirish yoki xizmatlar uchun to'lovlarni bajarishda bank kartasidan bevosita foydalanmasdan, mobil ilova orqali hisob-kitobni amalga oshirmoqda. Hisob-kitobning bunday shakli xaridor uchun ham, sotuvchi uchun ham an'anaviy bank plastik kartalari orqali to'lovni amalga oshirishga nisbatan qulayroq hisoblanadi. QR-kod texnologiyasi qo'llanilganda kartani qabul qilish uchun terminal qurilmasidan foydalanilmaydi, uning vazifasini smartfon bajaradi.

O'zbekiston Respublikasining 2020–2025–yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasida davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank faoliyatiga zamonaviy standartlar, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni keng joriy etish¹, shuningdek, davlat ulushi mavjud banklardagi

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2025–yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF–5992–son. 2020–yil 12–may. – [Lex.uz](https://lex.uz)



aksiyalar paketlarini zarur tajriba va bilimga ega investorlar o'rtasida tanlov asosida realizatsiya qilish vazifalari belgilangan. Shu bilan birga, davlat ulushi mavjud tijorat banklari va korxonalarni parallel ravishda isloh qilish orqali bank sektorida davlat ulushini qisqartirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda aholi tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan mobil ilovalar orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o'tkazmalari (P2P)ni amalga oshirish, soliq, budget, kommunal va boshqa turdagi to'lovlarni bajarish, mikroqarz olish va kreditlarni so'ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvaraqlari orqali to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek, onlayn konversiya operatsiyalarini bajarish kabi masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda.

Xususan, Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, tijorat banklarining masofadan xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalanuvchilar soni 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 82 902 522 nafarni tashkil etgan. Shundan 81 189 ming nafari jismoniy shaxslar, 1 713 ming nafari esa yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlardan iborat (1-jadval).

1-jadval. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni (turlari bo'yicha) haqida ma'lumot (2020-2025-yillar 1-yanvar holatiga, ming nafar)²

Sana	Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar	Jismoniy shaxslar
2020-yil	691	9 462
2021-yil	822,5	13 747
2022-yil	968,6	19 234
2023-yil	1 157	28 843
2024-yil	1 461	51 455
2025-yil	1 713	81 189

Mazkur jadval ma'lumotlari masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining 2020-2025-yillar davomida barqaror va jadal sur'atlarda oshganini ko'rsatadi. Jumladan, yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 2020-yilda 691 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 1 713 ming nafarga yetgan. Natijada mazkur segmentda foydalanuvchilar soni qariyb 2,5 barobar oshgan. Bu holat biznes subyektlari tomonidan raqamli bank xizmatlaridan foydalanish darajasi izchil ortib borayotganini anglatadi.

Jismoniy shaxslar bo'yicha o'sish sur'atlari yanada yuqori ekanligi kuzatiladi. Xususan, 2020-yilda 9 462 ming nafarni tashkil etgan foydalanuvchilar soni 2025-yilga kelib 81 189 ming nafarga yetgan bo'lib, bu qariyb 8,5 barobar o'sishni ifodalaydi. Mazkur tendensiya aholi o'rtasida masofaviy bank xizmatlariga bo'lgan talabning keskin ortgani hamda ushbu xizmatlarning keng ommalashganidan dalolat beradi.

Dinamika tahlili shuni ko'rsatadiki, ayniqsa 2023-yildan boshlab o'sish sur'atlari sezilarli darajada tezlashgan. Bu esa raqamli infratuzilmaning rivojlanishi, internet xizmatlari sifati yaxshilanganini hamda tijorat banklari tomonidan innovatsion bank xizmatlarining faol joriy etilishi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, jismoniy shaxslar ulushining yuqoriligi masofaviy bank xizmatlari bozorida asosiy o'sish manbai aholi ekanligini ko'rsatadi. Mazkur holat moliyaviy ommaboplik darajasining ortishi va raqamli moliyaviy xizmatlar qamrovining kengayib borayotganini ifodalaydi.

Umuman olganda, tahlil natijalari mamlakatda raqamli banking xizmatlari bozorida barqaror o'sish tendensiyasi shakllanganini hamda masofaviy xizmatlar bank tizimi samaradorligini oshirishning muhim omiliga aylanayotganini ko'rsatadi.

Masofaviy bank xizmatlari an'anaviy usullarga nisbatan xizmat ko'rsatish sifatining oshishi, raqamli banking va raqamli bank tizimlarini keng joriy etish, yangi bank mahsulotlarini yaratish hamda filiallar ochish bilan bog'liq xarajatlarni qisqartirish kabi ustunliklarga ega [5].

Raqamli banking tushunchasini to'liq anglash uchun "mijoz-bank", "bank-mijoz", internet banking, elektron banking, "online banking", "remote banking", "direct banking", "home banking", "PC banking", telefon banking, mobil banking, "WAP banking", SMS banking, "GSM banking" hamda "TV banking" kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglash zarur hisoblanadi [6].

Bank xizmatlari bozorida raqobat muhitini yanada kuchaytirish maqsadida fintex kompaniyalari faoliyatini rivojlantirish, shuningdek, korporativ boshqaruvning xalqaro tajribasini o'rganish asosida zamonaviy funksional tizimlarni yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan [1].

Umuman olganda, masofaviy bank xizmatlari bozori rivojlanishining dolzarb tendensiyalarini belgilovchi asosiy jarayonlar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

² Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



- banklar tomonidan mijozlarga taqdim etilayotgan bank mahsulotlari va xizmatlari turlarini kengaytirish, shuningdek, mijozlar va banklarning vaqt, tranzaksiya hamda moliyaviy xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiluvchi zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish;
- bank sektorida onlayn bank bozori yangi segmentlari hamda innovatsion onlayn bank vositalarining joriy etilishi;
- onlayn banking bozorida banklar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi hamda mijozlarga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatining oshib borishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, banklarda yangi innovatsion xizmatlarni joriy etish va ularni yanada rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, masofaviy bank xizmatlarini mijozlarga kengroq taklif etish hamda ularni ommalashtirish uchun mavjud imkoniyatlar tobora kengayib bormoqda. Bu esa, bir tomondan, mijozlarning zamonaviy bank xizmatlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirsa, ikkinchi tomondan, banklar faoliyati samaradorligini yuksaltirish va ish jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, hududlarda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, aloqa va internet kanallari sifatining yaxshilanib borishi aholining innovatsion xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda vaqt va xarajat talab etadigan jarayonlarni sezilarli darajada qisqartiradi.

Shuningdek, hududlarda masofaviy xizmatlardan foydalanish bo'yicha infratuzilma va tashkiliy sharoitlarni rivojlantirish aholi uchun yanada qulay imkoniyatlarni yaratadi. Aloqa kanallari sifatining oshishi iste'molchilarning zamonaviy innovatsion xizmatlardan foydalanish darajasini yuksaltirib, ularni ortiqcha vaqt sarflash bilan bog'liq jarayonlardan xalos etadi. Masalan, kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni bank yoki to'lov shoxobchalariga bormasdan, uy sharoitida amalga oshirish imkoniyatining kengayishi aholiga sezilarli qulaylik yaratmoqda.

Fikrimizcha, respublikamizda to'lov va bank xizmatlari sohasida raqobat muhitining rivojlanishi hamda aholining moliyaviy savodxonligi ortib borayotgani banklar faoliyatining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Bunday sharoitda yuqori sifatli raqamli bank xizmatlarini taklif etayotgan banklar raqobat ustunligiga ega bo'lib, mijozlar ishonchini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Moliyaviy xizmatlar bozorida zamonaviy innovatsion talablar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga mos ravishda faoliyatini transformatsiya qilayotgan banklar istiqbolda barqaror rivojlanish salohiyatiga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, innovatsion bank mahsulotlari va xizmatlari tijorat banklarini samarali boshqarishda, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda hamda banklarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2025–yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF–5992–son. 2020–yil 12–may. – Lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi. – 2020–yil 25–yanvar. – № 19 (7521).
3. Ablyazov T., Asaul V. On Competitive Potential of Organization under Conditions of New Industrial Base Formation // SHS Web of Conferences. – 2018. – Vol. 44. – 00003.
4. Koshcheev V.A., Tsvetkov Yu.A. Tsifrovaya transformatsiya bankovskogo sektora. – CyberLeninka
5. Mamadiyarov Z.T. Raqamli iqtisodiyotda masofaviy bank xizmatlarining evolyutsion rivojlanishi: mulohazalar va tahlillar // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – 2020. – № 3. – May–iyun.
6. Umarova M.B. O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish yo'llari // "Iqtisodiyot va ta'lim". – 2021. – № 2.
7. Oltaev Sh.S. Mamlakatda banklarni transformatsiyalash jarayonida raqamli bank xizmatlarini joriy etish istiqbollari // Modern Education and Development. – 2026. – Vol. 41. – No. 3.
8. Raximova X.U. Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lovlarni tizimi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Moliya, 2016. – 243 b.
9. Raxmonov D.A., Xoshimov E.A., Alimardanov E.D., Bekmuradova G.A., Mamadiyarov Z.T. Moliyaviy globallashtirish sharoitida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi: nazariya va amaliyot: monografiya. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
10. Azlarova A.A. O'zbekiston bank tizimini raqamlashtirish masalalari // "Iqtisodiyot va ta'lim". – 2022. – 23(2). – B. 70–75.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobot ma'lumotlari. – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
